



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MEHNATGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**NORMURODOVA HILOLA
BAXTIYOR QIZI,**

*Termiz davlat pedagogika
instituti Boshlang'ich ta'lim
fakulteti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp376-378>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnatga bo'lgan layoqatini oshirish va ularda ijobiy munosabatlarni shakllantirish haqida bayon etilgan. Boshlang'ich sinflarda mehnat darslarining o'tilishi, uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qonun, DTS, mehnat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish usullari. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida har tomonlama rivojlangan, fan-texnika taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan. Natijada, ularni mehnatga tayyorlashning keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi. Mehnatning, nafaqat bola tarbiyasida, balki har qanday odamning komil inson bo'lib yetishishida ahamiyati naqadar ulkan ekanligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mehnat to'g'risida alohida moddalar qabul qilingan. Masalan, "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash... (37-modda), yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar... (38-modda), Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega... (39-modda)" kabi huquqiy me'yorlarni misol qilib aytib o'tish mumkin.

Xuddi shunday mehnatga, aynan olganda, mehnat ta'limiga e'tibor xalq ta'limida ham qaratilgan. Shu jumladan, boshlang'ich ta'limda ham har bir sinfda haftada

bir soatdan mehnat ta'limi mashg'ulotlari tashkil etilishi belgilab berilgan. Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan mehnat ta'limining maqsadi "o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat" dir. Mehnat ta'limining tarbiyaviy maqsadi ham kattadir, ya'ni "o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirish" lozim. Mehnat ta'limining hozirgi davrdagi, qolaversa, mehnat ta'limi o'qituvchilarining vazifalari ham, bu vazifalarning talab darajasida bajarilishiga ham yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishlarida muhim o'rin tutadi. Bu vazifalar tubandagilardan iboratdir:

- Tashkiliy vazifalar: o'quvxona, unda maxsus ish joyi, zarur materiallar, asboblarni tashkil qilish, sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizligi talablarini ta'minlash.

Uslubiy vazifalar – mashg'ulotlarning yarim va bir yillik o'quv ish rejalarini tuzish, mahalliy sharoitlarni hisobga olish, o'g'il va qiz bolalarning o'zlariga xos mehnat mashg'ulotlarini va kasb tanlashlarini amalga oshirib borish va boshqalardir.

Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan mehnat ta'limi fani o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqtirish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini 5-sinf uchun uzviy bog'lanish zaminini yaratishni ko'zda tutadi. Bular ta'limiy va tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi yo'nalishlar hisoblanadi. O'qituvchi mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishi darkor. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirishga qo'yilgan davlat talablarida kursni bitirgan o'qituvchi mehnat ta'limi fani bo'yicha mashg'ulotlarni ham "talab darajasida o'tish mahoratiga ega bo'lishi" aytib o'tilgan. Ana shu talabdan xulosa chiqarib, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi (mehnat ta'limi fanini o'qitmasa ham) mehnat ta'limi bo'yicha barcha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni, davlat ta'lim standarti va dastur talablarini, mashg'ulotlar o'tish shart-sharoitlarini, metodikasini chuqur bilishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, (sinf rahbari sifatida ham) o'quvchlarning mehnat ta'limi dasturida belgilangan bilim, ko'nikmalarini davlat ta'lim standartlariga binoan o'zlashtirish holatini dastlabki, oraliq va yakuniy nazorat qilib borishlari kerak. Mehnat ta'limi "Inson va jamiyat" sohasiga kiradi. Bu sohada jami beshta fan mavjud. Davlat ta'lim standarti beshta fan bo'yicha umumiy holda bir bo'limda keltirilgan. Bular orasidan mehnat ta'limi bo'yicha qo'yilgan talablarni aniqlab olish zarur. Tubandagi talablar shular jumlasiga kiradi:

- texnik modellashtirishga oid ishlarni bilish;
- uy-ro'zg'or ishlarini bajara olish;
- sodda konstruktorlik ishlarini bajara olish;
- duradgorlikka oid sodda va yengil ishlarni bajara olish (o'g'il bolalar uchun);
- oddiy bichish-tikish ishlarini bajara olish (qiz bolalar uchun);
- inson mehnatini, faoliyat turlarini anglash.

DTS 4-sinf bitiruvchilariga qo'yiladi. Shunga qaramasdan, bu ko'rsatkichlarga o'quvchilar birinchi sinfdanoq tayyorlab boriladi. Har bir sinfda qanday bilim, ko'nikma va malakalarni berish dastur talablarida belgilab beriladi. Shuning uchun

ham mehnat ta'limidan dars beruvchi o'qituvchi, avvalo, har bir sinf oxirida o'quvchlar bilishi, uddalay olishi kerak bo'lgan dastur talablarini chuqur bilishi shart va har bir mehnat ta'limi mashg'uloti jarayonida o'z maqsadini ana shu talablarni bajarishga qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyeva K, Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.